

MODADAGI USTIVOR TENDENSIYALAR

Abduqodirova Nargiza Abduraximovna

nargiza 196710@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada moda sohasida urfga aylanayotgan ustuvor tendensiyalarning shakllanishi, prinsiplari va ularga jamiyat a'zolarining individual munosabatlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, hozirgi kunda urfga aylangan moda yo'nalishlari xaqidagi aktual mulohazalar maqolaning nafaqat moda sohasi mutaxassislari balki, moda ixlosmandlari uchun ham manfaatli ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

***Kalit so'zlar:** moda, urf, moda trendlari, konsepsiya, "modest fashion", moda brendlari.*

ABSTRACT

The article discusses the formation of dominant trends in the fashion industry, their principles, and the individual attitudes of society members to them. Also, current considerations about current fashion trends serve to justify the fact that the article is useful not only for fashion experts, but also for fashion lovers.

***Keywords:** fashion, tradition, fashion trends, concept, "modest fashion", fashion brands.*

KIRISH

Moda (fr. mode, lot. Modus – o'lchov, qiyofa, usul, qoida) – madaniyat, san'at, ilm fan sohalarida ma'lum bir uslubning vaqtinchalik urfga aylanishi [1.]. Bu jarayonlarning eng yorqin jihatlari avvalo, libos dizayni sohasida ko'zga tashlanadi.

Shu sababli, ko'p hollarda insonlar "moda" tushunchasi haqida fikr yuritar ekanlar, birinchi galda ularda kiyim-kechaklar va ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlar haqida tasavvur uyg'onadi. Ammo, mazkur tushuncha nafaqat kiyim-kechaklar balki, insonlarning jamiyat a'zolari orasida o'zlarini tutishlari, adabiyot, san'at, kinomatografiya hamda ko'plab sohalar doirasidagi urfga kiradigan yangiliklarni qamrab oladi.

So'nggi yillar mobaynida moda trendlarining jamiyat a'zolari orasida urfga aylanishida ijtimoiy tarmoqlar asosiy ta'sir etuvchi omil sifatida ko'zga tashlanmoqda. 7 fevral 2025 yil sanasida «Toshkent city mall» majmuasida yoshlar ishtirokida milliy liboslar targ'ibotiga bag'ishlangan fleshmob tashkil etilda. Unda milliy kuy-qo'shiqlar ijro etilib, ishtirokchilar uchun milliy o'yinlarda qatnashish imkoni yaratildi hamda milliy liboslar namoyishi bo'lib o'tdi. Xususan, bu jarayonda taniqli blogerlar, san'at va madaniyat namoyondalari kiyinish uslublari zamonaviy urfdagi kiyinish uslublarini shakllanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etib kelmoqda.

Bundan bir necha yillar avval yurtimizda milliy matolarimizdan tayyorlangan zamonaviy uslublar asosidagi liboslar bilan bir qatorda, jahon modasi va san'ati muxlislari orasida yevropa uslubidagi ochiq liboslarni kiyish urfga aylangan edi. Hozirgi kunda esa mamlakatimizda Sharqona urfdagi sipo liboslar urfga kirayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur yo'nalish jahon modasida "Modest fashion" uslubiy yo'nalishi sifatida tobora aktuallashib, nafaqat musulmon davlatlari dizaynerlari ijodida balki, jahon modasining ko'zga ko'ringan moda brendlari libos to'plamlarida ham shakllantirilmoqda. Bu jarayonda "Dolce & Gabbana" brendining "modest feyshn" an'alaridagi libos to'plami alohida e'tiborga loyiq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'p hollarda insonlar moda tushunchasi xaqida - o'zgarishlarga moyil va tez urfdan chiqadigan deya ta'rif beradilar va bu jihat ularning shaxsiy garderoblarini shakllantirishlarida bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo, moda trendlari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lgan insonlar shaxsiy garderoblarini shakllantirish jarayonlarida asosiy e'tiborni jamiyatdagi mavqe'lariga mos keluvchi hamda, bir necha mavsumlar davomida urfdan chiqmaydigan libos assortimentlariga qaratadilar va shunday liboslarni xarid qiladilar. Garderoblarini mavsum doirasida urfga kirgan moda tendensiyalariga mos kelishi uchun esa trenddagi aksessuarlar yoki ranglardan foydalanadilar.

Bu esa tabiiy ravishda ko'pchilikda tug'iladigan savol ya'ni, moda trendlariga hech qanday o'zgartirishsiz murojaat qilish zarurmi yoki, ularni ijtimoiy mavqe, kundalik turmush tarzi va e'tiqodlar asosida to'ldirish zarurmi kabi savollarga javob bo'lishi tabiiy. Urfga kirgan moda trendlari qanchalik yangi va aktual ko'rinmasin, u jamiyat a'zolarining xayot tarziga, qadriyatlariga, qomat o'ziga xosliklariga mos kelmasa bu libosni kiygan inson undan zavq olmasligi hamda o'zini noqulay his qilishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda moda tendensiyalarining eng so'nggi talablariga javob beradigan urfdagi liboslardan shaxsiy garderoblarini shakllantirishni maqsad etgan moda ixlosmandlaridan talab etiladigan jihat avvalo, urfga kirayotgan moda trendlari xaqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlaridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir mavsum doirasida urfga kiradigan moda trendlari o'zida konstruktiv va dekorativ o'ziga xosliklar, rang yechimlari, uslub va yo'nalishlar, printlar, soch turmaklari, makiyaj, poyafzal va aksessuarlarning yangidan yangi dizaynlarini qamrab oladi.

Aytish mumkinki, moda sohasida urfga aylanishi kutilayotgan moda trendlarini nafaqat to'g'ri tahlil qilish bilan birga, ularga turmush tarzlari, qomat o'ziga xosliklari

hamda individual arxetiplari doirasida munosabat bildira olish orqali betakror obrazlar shakllantiriladi.

Shu bilan bir qatorda, moda trendlariga qiziquvchi va ularni o'z garderoplarida ko'rishni istaydigan insonlar talab va istaklari ko'p hollarda moda sohasi uchun umumiy bo'lgan funksiyalarni qamrab oladi. Masalan, moda sohasining me'yorga solish funksiyasi –insonlarning jamiyat a'zolari orasida shakllantiradigan obrazlari va o'zini tutish belgilari, hamda madaniyat sohalarida aktual deb qaralayotgan ko'plab tendensiyalar ichidan ustuvor ahamiyatga ega bo'lganlarinigina ma'lum bir vaqt davomida urfga aylanishiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yuqorida ta'kidlab o'tgan jihat ya'ni, so'nggi yillar davomida nafaqat dunyo modasi, balki yurtimizda ham urfga aylanayotgan Sharqona urfdagi tendensiyalarni hozirgi kunda jamiyatimizdagi aktual sohalar ya'ni, ta'lim, adabiyot, san'at va musiqa sohalarida yaqqol kuzatish mumkin.

Moda sohasining yana bir aktual funksiyalaridan hisoblanadigan ijtimoiy funksiyasi – jamiyat a'zolarini ijtimoiy va madaniy an'analar bilan umumlashuviga xizmat qilgan holda, ularni ma'naviy – ahloqiy qadriyatlarga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Xususan, mamlakatimizda tashkil etiladigan aksariyat moda namoyishlarida taqdim etiladigan milliy an'analarimiz asosidagi libos to'plamlari ona yurtimizga muhabbatli, vatanparvar jamiyat a'zolarining mazkur namoyishlarda tomoshabin sifatida ishtirok etishi va shaxsiy garderoplarida mazkur uslubdagi liboslardan foydalanishlariga ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda moda sanoatida tezlashtirilgan moda ya'ni, "fast fashion" moda yo'nalishi talablari asosida ishlab chiqarilgan liboslar urfga aylanib bormoqda. Tabiiyki, mazkur yo'nalish talablaridan biri bo'lgan, xaridorgir narxlardagi sifati yuqori bo'lmagan liboslar moda sohasining obro' e'tiborga sazovor bo'lish funksiyasiga javob bera olmaydi. Sababi, moda jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqelarini namoyon etadi. Arzon narxlardagi, sifati talabga javob bera olmaydigan liboslar kiygan insonlar ko'p hollarda qanday soha vakillari hamda, o'z kasblarining qanchalik yuqori darajadagi mutaxassisi bo'lishlaridan qat'iy nazar jamiyat a'zolari orasida ishonch uyg'ota olmaydilar. Bu esa, moda sohasining obro' e'tibor qozonish va kasb doirasida yuqori natijalarni qo'lga kiritish jarayonlarida nihoyatda muhim aspektlardan biri ekanligi xaqidagi xulosalarni keltirib chiqaradi.

Moda sohasining yana bir muhim aspektlaridan biri bo'lgan axborot almashish funksiyasi - jahon modasida urfga kirayotgan turli xalqlar va ularning madaniy qadriyatlari, moda sohasidagi retro liboslari va uslubiy yo'nalishlar ta'sirida shakllantirayotgan individual moda konsepsiyalari orqali mazkur xalqlar an'analari, o'tgan asr modasida reformalar yarata olgan buyuk kutyurelar ijodi xaqida axborot olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Masalan, mamlakatimiz moda sohasida milliy

a'nalarimiz asosida yaratilgan libos to'plamlarini tomosha qilar ekanmiz, albatta mazkur an'analar xaqida vizual shakldagi ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Hozirgi kunda moda sohasining rivoji, ushbu soha doirasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar modaning iqtisodiyotni rivojlantirish aspektlari, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, funksiyalari asosida shakllantirib kelinmoqda. Har bir libos dizayneridan eng yirik moda uylarigacha o'z faoliyati mobaynidagi amaliy jarayonlari zamirida avvalo, o'zining qolaversa, jamiyatning iqtisodiy tomondan yuksalishiga qaratilgan maqsadlari yotadi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida ham tekstil korxonalari va mahalliy moda brendlarning samarali faoliyatlari salmoqli o'ringa ega bo'lib bormoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, moda sohasining jamiyat xayotida tutgan yuqori darajadagi o'rnini xaqida so'zlar ekanmiz, uning bir necha aktual sohalar bilan o'zaro chambarchas bog'langanligini asos qilib keltirishimiz mumkin. Bu esa, moda ixlosmandlarining jamiyatdagi iqtisodiyot, ma'naviyat, ta'lim, hamda san'at sohalarida urfga aylanayotgan eng so'nggi tendensiyalaridan xabardor bo'lish, ularga o'z vaqtida va to'g'ri munosabatda bo'lishlarini talab etadi.

Har bir mavsum doirasida nafaqat moda yangiliklari, balki adabiyot va san'at sohalarida ro'y berayotgan yangilanishlardan xabardor bo'lish orqali -"Hozirgi vaqtni chuqur tahlil qilish va ular bizga qanday qiziqarli, foydali va yangi qiyofalarni bera oladi deb xulosa qilish zarur"[2,9-s.]. Natijada, moda ixlosmandlari o'z mavq'elari hamda individual o'ziga xosliklarini yanada yuksalishiga yordam beradigan shaxsiy garderoplarini shakllantirishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elektron resurs. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/16458>
2. Лора Вольпинтеста. «Как понимать язык моды». М.: Эксмо, 2014. 9-б.
3. Волевич Г. Красиво и модно: Одежда для молодежи. –М.: Молодая гвардия, 1981. –175 с.
4. Зайцев В. Этот многоликий мир моды. М.: Советская Россия, 1982. -80 с.